

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK:338.48-44(23.0)(575.114)*

**MAVLANOV G‘OLIBJON MUXAMMAD O‘G‘LI  
O‘ZBEKISTONDA TOG‘ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING  
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy  
darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. N.G. Zufarova**

Toshkent – 2025-yil

## M U N D A R I J A

|                |                                                                                                                                                                                  |            |
|----------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|                | <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                                                               | <b>3</b>   |
| <b>I BOB</b>   | <b>Tog‘ turizmining rivojlanish xususiyatlari</b>                                                                                                                                | <b>13</b>  |
| 1.1-§          | Tog‘ turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari                                                                                                                       | 13         |
| 1.2-§          | O‘zbekiston Respublikasida va xorijda tog‘ turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash                                                                                  | 25         |
| 1.3-§          | Hududlarda tog‘ turizmi sohasida qulay investitsiya muhitining tarkibiy qismlarini baholash                                                                                      | 40         |
|                | <b>Birinchi bob bo‘yicha xulosalar</b>                                                                                                                                           | <b>58</b>  |
| <b>II BOB.</b> | <b>O‘zbekiston Respublikasining Jizzax viloyatida tog‘ turizmining holati va tahlili</b>                                                                                         | <b>60</b>  |
| 2.1-§          | O‘zbekiston Respublikasining Jizzax viloyatida tog‘-chang‘i kurortlarining shakllanish bosqichlari va ularning viloyatda kurort-rekreatsioon kompleksini rivojlantirishdagi roli | 60         |
| 2.2-§          | O‘zbekiston Respublikasining Jizzax viloyatida chang‘i turizmini rivojlantirish, turistik va rekreatsioon resurslarni iqtisodiy baholash                                         | 68         |
| 2.3-§          | Jizzax viloyati investitsion muhitining marketing strategiyasi faoliyati samaradorligini baholash                                                                                | 79         |
|                | <b>Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar</b>                                                                                                                                           | <b>90</b>  |
| <b>III BOB</b> | <b>Tog‘ turizmining rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari</b>                                                                                                                | <b>92</b>  |
| 3.1-§          | Hududlarda tog‘ turizmini rivojlantirishga investitsiyalar sohasidagi institutsional defitsitlarni bartaraf etish mexanizmlari                                                   | 92         |
| 3.2-§          | O‘zbekiston Respublikasining Jizzax viloyatida tog‘ turizmiga investitsiya manbalarini jalb qilishda onlayn marketingdan foydalanish istiqboli                                   | 105        |
| 3.3-§          | Tog‘ turizmi iqtisodiyotiga davlat investitsiyalarini jalb qilish vositasi sifatida hududning investitsiya marketing rejasini ishlab chiqish                                     | 132        |
|                | <b>Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar</b>                                                                                                                                           | <b>145</b> |
|                | <b>XULOSA</b>                                                                                                                                                                    | <b>147</b> |
|                | <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>                                                                                                                                        | <b>150</b> |
|                | <b>ILOVALAR</b>                                                                                                                                                                  | <b>169</b> |

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida tog‘ turizmini rivojlantirishga nafaqat hududiy iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ushbu turizm turi ekoturizm, sport turizmi va madaniy merosga asoslangan sayohatlar bilan integratsiyalashgan holda, kam rivojlangan tog‘li hududlarda infratuzilmani yaxshilash, mahalliy aholining daromadini ko‘paytirish va ish o‘rinlari yaratish orqali ularni iqtisodiy faollikka jalb etadi hamda mamlakatning tashqi iqtisodiy obro‘cini oshirishga xizmat qiladi. Jahon sayyohlik tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, “So‘nggi o‘n yilda tog‘li hududlarga tashrif buyuruvchilar soni yiliga o‘rtacha 5–7 % o‘shib bormoqda. Bu o‘shish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki tog‘li mintaqalarda yashovchi mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash, tabiatni asrash va madaniy merosni saqlashga ham xizmat qiladi”. Shu bilan birga, tog‘ turizmini barqaror rivojlantirish, uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda global ahamiyatga ega masalaga aylanib bormoqda. Chunki tog‘ turizmi ekologik muvozanatni saqlash, iqlim o‘zgarishiga moslashish va mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish kabi global muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi.

Jahonda tog‘ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari, avvalo, tog‘li hududlarda barqaror turizm infratuzilmasini shakllantirish, ekologik cheklovlarni hisobga olgan holda, investitsion model va moliyaviy rag‘batlantirish tizimlarini ishlab chiqish, hududiy ixtisoslashuv asosida turizm resurslarining iqtisodiy samaradorligini baholash, mahalliy aholining bandligi va daromadlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan iqtisodiy instrumentlarni qo‘llash, shuningdek, tog‘ turizmi tarmoqlarida davlat-xususiy sheriklik (DXSH) asosida boshqaruv mexanizmlarini joriy etish kabi konseptual yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa umumiy iqtisodiy o‘shishga xizmat qilish barobarida, kam rivojlangan hududlarda ijtimoiy adolat va hududlararo iqtisodiy disproporsiyalarni kamaytirishga yordam beradi.

O‘zbekiston uchun tog‘ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakat hududining qariyb 21 foizini tog‘lar tashkil etishi, boy tabiiy, tarixiy va madaniy merosga egaligi tog‘ turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq bu salohiyatdan to‘liq foydalanilmayapti. Tog‘ turizmini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy o‘sishga erishish, balki qishloq joylarida yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy aholining daromadlarini oshirish va mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantirish mumkin. Shu bilan birga, tog‘ ekotizimlarini saqlash, iqlim o‘zgarishiga moslashish va milliy madaniy merosni asrash kabi muhim vazifalarni hal etishga ham hissa qo‘shish mumkin. Shuning uchun tog‘ turizmini rivojlantirishning samarali iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, bu mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlanishni ta‘minlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, “tog‘ turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini takomillashtirish, tog‘ turizmiga davlat investitsiyalarini jalb etish tadbirlarining maqbul chegaraviy qiymatlarini belgilash, tog‘ turizmida investitsion faollikni oshirishga yo‘naltirilgan qonunchilik bazasini uyg‘unlashtirish asosida faoliyat samaradorligini oshirish, Jizzax viloyati tog‘ turizmida onlayn marketing kampaniyalari va investitsiyalarni jalb qilish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida prognoz ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishga qaratilgan dissertatsion tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–9-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son, 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5611-son, 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-

tadbirlar to'g'risida"gi PF-5326-son farmonlari, 2024-yil 25-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-335-son, 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tog' turizmini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, J.Swarbrooke, S.Horner, G.Moscardo, J.Makens, E.Laws kabi xorijlik olimlar tomonidan tog' turizmining nazariy asoslari hamda uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan<sup>1</sup>.

MDH mamlakatlarida tog' turizmini rivojlantirish muammolarini A.Yu. Alexandrova, M. Nuzhdina, D.I. Mamycheva kabi olimlar tadqiq etishgan<sup>2</sup>.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari M.Q. Pardayev, B.Isroilov, I.Isadjanov, A.A. Eshtayev, B.Sh. Safarov, M.T. Aliyeva, A.N. Norchayev, Sh.R. Fayziyeva, B.Sobirov kabi olimlarning boshqa mavzulardagi ilmiy ishlarida

---

<sup>1</sup> Swarbrooke J., Horner S. Consumer behaviour in tourism. – Routledge, 2007; Moscardo, Gianna. "Mindful visitors: Heritage and tourism". Annals of tourism research 23.2 (1996): 376-397; Laws, Eric. Improving tourism and hospitality services. CABI, 2004.

<sup>2</sup> Alexandrova, P. Angelica. "Trends in the sphere of tourism". Интеграция туризма в экономическую систему региона: перспективы и барьеры. 2021; Vladimirovna, Nuzhdina Marina, and Vasiliev Sergey Anatolyevich. "Recreation and tourism in the nizhny novgorod region". International agricultural journal 3 (2022): 3; Mamycheva, D.I., Kobersy, I.S., Korenko, Y.M., Novikov, V.S., & Mandrik, N.V. (2017). Management of tourism and technology of planning of the tourist product. International Journal of Applied Business and Economic Research, 15(12), 215-224; Abduraimov, Dilshod. "Criteria and Indicators for Evaluating the Effectiveness of The Development of Regional Tourism Infrastructure". Ilkogretim Online 20.3 (2021); Isadjanov, Abduvali, and Gulmurotov Ilyos. "Tourism development in uzbekistan: current trends and national priorities". The Light of Islam 1 (2020): 192-202.

o‘rganilib, ilmiy xulosalari keltirib o‘tilgan<sup>3</sup>. Biroq O‘zbekistonda tog‘ turizmini rivojlantirishning zamonaviy marketing strategiyalari, raqamli texnologiyalardan foydalanish, investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining AL-8023082021 “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida “Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi”dagi o‘rnini baholashning O‘zbekiston uchun “milliy model”ini ishlab chiqish ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan.

#### **Tadqiqotning maqsadi:**

O‘zbekistonda tog‘ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tog‘ turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish;

O‘zbekiston va xorijda tog‘ turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash;

hududlarda tog‘ turizmi sohasida qulay investitsiya muhitining tarkibiy qismlarini aniqlash va baholash;

O‘zbekistonning Jizzax viloyatida tog‘-chang‘i kurortlarining shakllanish bosqichlari va ularning viloyatda kurort-rekreatsion kompleksini rivojlantirishdagi rolini o‘rganish;

---

<sup>3</sup> Pardaev, M.Q., & Isroilov, B.I. (2021). Economic impacts of the pandemic on tourism: the case of. Critical Reviews, ISSN, 7(7), 952-958; Safarov B.Sh. “Innovative forecasting of national tourism service market in the Republic of Uzbekistan”. Journal of Management Value & Ethics (2016); Sobirov Bobur, et al. “The Essence and Composition of Regional Tourist Resources: Scientific Theoretical Analysis”. International Conference on Advance Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022). Atlantis Press, 2023.

Jizzax viloyatida changʻi turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va turistik-rekreatsion resurslarni iqtisodiy baholash;

hududlarda togʻ turizmini rivojlantirishga investitsiyalar sohasidagi institutsional kamchiliklarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

Jizzax viloyatida togʻ turizmiga investitsiya manbalarini jalb qilishda onlayn marketingdan foydalanish istiqbollarini oʻrganish;

togʻ turizmi iqtisodiyotiga davlat investitsiyalarini jalb qilish vositasi sifatida hududning investitsiya marketing rejasini ishlab chiqish;

togʻ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** Oʻzbekistonda, xususan, Jizzax viloyatida togʻ turizmi sohasi va uning rivojlanish jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqot predmetini** Oʻzbekistonda togʻ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion jozibadorligini oshirish bilan bogʻliq munosabatlar, jarayonlar va qonuniyatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda soʻrovnoma va intervyu, tizimli tahlil usuli, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, SWOT-tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga koʻra, “togʻ turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni, asosan, togʻli hududlarning tabiiy-geografik, ekologik va ijtimoiy-madaniy resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishga asoslangan. Bu turizm faoliyati investitsiya jalb etish, yangi ish oʻrinlari yaratish hamda hududiy rivojlanishni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan ixtisoslashgan shakl boʻlib, yuqori iqtisodiy samaradorlikni taʼminlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

togʻ turizmiga davlat investitsiyalarini jalb etishning kompleks modeli investitsion jozibadorlikni oshirish ( $25\% \leq IJ \leq 30\%$ ), davlat-xususiy sheriklik

loyihalari sonini ko'paytirish ( $30\% \leq DXSh \leq 50\%$ ), innovatsion texnologiyalarning sohaga integratsiyasini kengaytirish ( $35\% \leq IT \leq 40\%$ ), sohaning umumiy iqtisodiy o'sishini barqaror ta'minlash ( $10\% \leq IO' \leq 12\%$ ) tadbirlarining maqbul chegaraviy qiymatlarini belgilash orqali takomillashtirilgan;

tog' turizmida investitsion faollikni oshirishga yo'naltirilgan ko'p omilli institutsional model milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda qonunchilik bazasini uyg'unlashtirish asosida faoliyat samaradorligini oshirishning davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o'rtasidagi hamkorlik ( $0,1 \leq H \leq 0,3$ ), moliyaviy resurslarni boshqarish ( $0,2 \leq MR \leq 0,45$ ), tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ( $0,25 \leq TR \leq 0,35$ ), ekoinnovatsiyalarni kengaytirish ( $0,1 \leq 0,25$ ) o'rtasidagi nisbatni muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

Jizzax viloyati tog' turizmida onlayn marketing kompaniyalari va investitsiyalarni jalb qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tog' turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari va konseptual yondashuvlari takomillashtirildi;

O'zbekistonda tog' turizmini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va omillari aniqlandi;

hududlarda tog' turizmi sohasida qulay investitsiya muhitining tarkibiy qismlari va baholash mezonlari ishlab chiqildi;

tog' turizmiga investitsiyalar jalb etishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari asoslandi;

tog' turizmi sohasida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari rivojlantirildi.



**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan xorijiy tadqiqot usullarining so‘rovnomadani o‘tganligi hamda uni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish imkonining yuqoriligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, vazirlik, idoralar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish korxona va tashkilotlari ma‘lumotlaridan foydalanganligi, tavsiflovchi statistika, tadqiqot davomida zamonaviy iqtisodiy-matematik usullar va modellardan foydalanilganligi, shuningdek, olingan natijalarning amaliyotda sinovdan o‘tkazilganligi va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganligi hamda xulosa va takliflar tegishli tarkibiy tuzilmalarda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundan iboratki, u tog‘ turizmini rivojlantirishda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklikni mustahkamlash, mahalliy hamjamiyat ishtirokini oshirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan konseptual yondashuv ishlab chiqadi. Shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional omillarni o‘z ichiga olgan ko‘p mezonli baholash tizimiga asoslangan tog‘ turizmi sohasida investitsion jozibadorlikni baholashning ajralmas modelini taklif qiladi. Tadqiqotda tog‘ turizmini rivojlantirishda mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan klasterli yondashuvning nazariy va uslubiy asoslari hamda tog‘ turizmini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari, xususan, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati** O‘zbekistonda tog‘ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalardan integral modeldan foydalangan holda, tog‘ turizmidagi mintaqalarning investitsion salohiyatini miqdoriy baholash vositalarini

taklif etish, togʻ hududlarining sayyohlik jozibadorligini oshirish hamda VR va AR texnologiyalaridan foydalangan holda, potensial investorlarni jalb qilish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqish, unda turizm daromadlarini mahalliy jamoalar oʻrtasida teng taqsimlash va ularning faol ishtirokini taʼminlash mexanizmlari taklif etish hamda ushbu topilmalardan siyosatchilar va turizm sohasi manfaatdor tomonlari Oʻzbekistonda, xususan, Jizzax viloyatida togʻ turizmining investitsion jozibadorligini oshirish va barqaror rivojlanishida foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oʻzbekistonda togʻ turizmini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga koʻra, “togʻ turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini, asosan, togʻli hududlarning tabiiy-geografik, ekologik va ijtimoiy-madaniy resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishga asoslangan, investitsiya jalb etish, yangi ish oʻrinlari yaratish hamda hududiy rivojlanishni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan turizm faoliyatining ixtisoslashgan shaklini yuqori iqtisodiy samaradorlikni taʼminlash nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Turizm asoslari” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrugʻi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida turizm yoʻnalishidagi talabalarda togʻli hududlarning tabiiy-geografik, ekologik va ijtimoiy-madaniy resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishga yoʻnaltirilgan turizm faoliyatining ixtisoslashgan shaklini yuqori iqtisodiy samaradorlikni taʼminlash nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan togʻ turizmi tushunchasi yuzasidan bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

togʻ turizmiga davlat investitsiyalarini jalb etishning kompleks modeli investitsion jozibadorlikni oshirish ( $25\% \leq IJ \leq 30\%$ ), davlat-xususiy sheriklik loyihalari sonini koʻpaytirish ( $30\% \leq DXSh \leq 50\%$ ), innovatsion texnologiyalarning

sohaga integratsiyasini kengaytirish ( $35\% \leq IT \leq 40\%$ ), sohaning umumiy iqtisodiy o'sishini barqaror ta'minlash ( $10\% \leq IO' \leq 12\%$ ) tadbirlarining maqbul chegaraviy qiymatlarini belgilash orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024–2027-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 30-iyundagi 03-10-17-5734-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida Jizzax viloyatining turizm salohiyati 2024-yilning ikkinchi kvartalida xorijiy sayyohlar soni 148 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilning oxiriga kelib 145 ming nafarni tashkil etgan;

tog' turizmida investitsion faollikni oshirishga yo'naltirilgan ko'p omilli institutsional model milliy, mintaqaviy va mahalliy darajalarda qonunchilik bazasini uyg'unlashtirish asosida faoliyat samaradorligini oshirishning davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o'rtasidagi hamkorlik ( $0,1 \leq H \leq 0,3$ ), moliyaviy resurslarni boshqarish ( $0,2 \leq MR \leq 0,45$ ), tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ( $0,25 \leq TR \leq 0,35$ ), ekoinnovatsiyalarni kengaytirish ( $0,1 \leq EIK \leq 0,25$ ) o'rtasidagi nisbatni muvofiqlashtirish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024–2027-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 30-iyundagi 03-10-17-5734-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida Jizzax viloyatining turizm salohiyati 2024-yilning ikkinchi kvartalida ichki sayyohlar soni 832 ming nafarni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2023-yilning oxiriga kelib 350 ming nafarni tashkil etgan;

Jizzax viloyati tog' turizmida onlayn marketing kompaniyalari va investitsiyalarni jalb qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi

bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024–2027-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 30-iyundagi 03-10-17-5734-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida olingan prognoz ko'rsatkichlardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan 2024–2027-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish konsepsiyasi asosiy parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, shu jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ma'ruza shaklida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 4 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 156 betdan iborat.